

## MEHR- MURUVVAT- DUNYO USTUNI

(3-dekabr-“ Xalqaro nogironlar kuni” munosabati bilan)

**Xodjimatova Nazira Toshmatovna**

Toshkent viloyati Angren shahar 34-sonli  
Tayanch-harakat a'zolari shikastlangan bolalar  
uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internati  
oliy toifali boshlang 'ich sinfo 'qituvchisi

**Xodjimatova Nigora Toshmatovna**

Oliy toifali ona tili va adabiyot fani o 'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Toshkent viloyati Angren shahar 34-maktab-internati haqida umumiy ma'lumotlar keltirilgan, shuningdek, bugungi kunda yurtimizda inson qadri, uning huquq va manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi ekanligi fikr yuritilgan. 3-dekabr -Xalqaro nogironlar kuni munosabati bilan maktab- internatida ezgulikka yo'g'rilgan hayriya tadbiri tafsilotlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** sog'lom ijtimoiy muhit, samimi, do'stona, bag'rikenglik munosabati, aqliy va ijtimoiy salohiyat, qobiliyat, korreksion, logopedik mashg'ulotlar, ijtimoiy hissiy rivojlanish, imkoniyati cheklangan, qadr, muruvvat, saxovat.

Toshkent viloyati Angren shahar 34-sonli tayanch-harakat a'zolari shikastlangangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internati Toshkent viloyati hokimligining 2014-yil 9-sentyabrdagi 244-sonli qarori asosida tashkil etilgan. Maktab-internatida 220 nafar o 'quvchilar tarbiyalanmoqda. Ulardan 89 nafari qiz bolalar, 131 nafari esa o 'g'il bolalar tashkil etadi. Bugungi kunda 38 nafar malakali o 'qituvchi va 35 nafar tarbiyachilar o 'quvchilarga ta 'lim-tarbiya berib kelishmoqda.

Tarbiyalanuvchilar tahsil olishi uchun maktab-internatida barcha imkoniyatlar, sifatlari shart-sharoitlar hamda sog'lom ijtimoiy muhit yaratilgan. O 'qituvchi va tarbiyachilarimiz o 'quvchilarga samimi, do'stona hamda bagrikenglik munosabatida bo'lishib, ularning aqliy va ijtimoiy salohiyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratadilar.

Shuningdek, maktab-internatida ijtimoiy-hissiy rivojlanishi, hayotiy qobiliyatlarini shakllantirish uchun korreksion, logopedik mashg'ulotlar ham yo'lga qo'yilgan.

Davlatamiz, qolaversa, Prezidentimiz tomonidan ta 'lim-tarbiya jarayonida imkoniyati cheklangan bolalarni qo'llab-quvvatlashga juda ham katta e'tibor

qaratilgan. Buni biz ta'lim, sport, ijtimoiy-huquqiy va boshqa turli sohalarda ko'rish mumkin.

Bugungi kunda yurtimizda inson qadri, uning huquq va manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi etib belgilangan. Bu jarayonda barcha nogironligi bo'lgan yurtdoshlarimizga e'tibor va amaliy g'amxo'rlik ko'rsatish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga alohida ahamiyat berilmoqda. Bu borada chuqur insonparvarlik bilan yo'g'rilgan sa'y-harakatlar 3-dekabr –Xalqaro nogironlar kundan ko'zlangan maqsad va vazifalarga uyg'un va hamohang ekanini ta'kidlash lozimdir. Bunday e'tibor va inson qadrini ulug'lashga qaratilgan tamoyillarni Yurtboshimizning ushbu sana munosabati bilan mamlakatimiz xalqiga qilgan murojaatida ham yaqqol ko'rishimiz mumkin. Xalqimiz "Mehr-muruvvat –dunyo ustuni" deb bezigza aytishmaydi.

Joriy yilning 1-dekabr kuni 3- dekabr –“Xalqaro nogironlar kuni” munosabati bilan Toshkent viloyati prokraturasi tashabbusu bilan Angren shahar va Ohangaron tumani prokraturasi, sektor rahbarlari hamda Angren shahar Xalq ta'limi bo'limlari ishtitokida maktab-internatida ezgulikka yo'g'rilgan hayriya tadbiri tashkil etildi. To'kin dasturxon atrofida bo'lib o'tgan qiziqarli konsert dasturi, mehr- oqibat haqida ash'orlar, ayniqsa, kuy va qo'shiqlar o'quvchilar qalbiga olam-olam shodlik-quvonch bag'ishladi. Tadbirda Saxovatli qalb egalari ularashgan sovg'a-salomlardan bolajonlar juda xursand bo'ldilar. Maktab-internati ustoz-murabbiylari mana shunday qo'li ochiq, saxovatpesha insonlardan minnatdor bo'lgan holda o'z bilimi, mehrini imkoniyati cheklangan, mehr-e'tiborga muhtoj bolajonlarga safarbar etishga doimo tayyordir.



**Foydalanimgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 3- dekabr -Xalqaro nogironlar kuni munosabati bilan murojaatnomasi . 2.12.2022
2. Toshkent viloyati Angren shahar 34-maktab- internati ma'lumotlar bazasi.